

## INTELLEKT MUAMMOSI VA UNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

O'risheva Pokiza G'anisher qizi – JDPU,  
o'qituvchi  
Erkinova Durдона Ibrohim qizi– JDPU,  
talaba

**Annotatsiya:** Maqolada intellekt va intellekt bilan bog'liq masalalar ochib berilgan. Jumladan, faylasuflarning intellekt borasidagi qarashlari, aql-zakovat tushunchasi, o'quvchilarning aqliy kamoloti, mutaffakkirlarning intellekt borasidagi qarashlari hamda intellektning psixologik jihatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** aql-zakovat, intellekt, bilish, bilim, tushunish, idrok, iroda, ong, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va psixik jarayonlar, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba, ist'edod, qadriyat, ma'naviyat.

**Аннотация:** В статье раскрываются вопросы, связанные с интеллектом и интеллектом. В частности, освещены взгляды философов на интеллект, понятие интеллекта, психическая зрелость учащихся, взгляды мыслителей на интеллект, психологические аспекты интеллекта.

**Ключевые слова:** интеллект, интеллект, познание, знание, понимание, восприятие, воля, сознание, память, мышление, речь и психические процессы, энергетическая деятельность, жизненный опыт, талант, ценность, духовность.

**Abstract:** The article reveals issues related to intelligence and intelligence. In particular, the views of philosophers on intelligence, the concept of intelligence, the mental maturity of students, the views of thinkers on intelligence, and the psychological aspects of intelligence are highlighted.

**Key words:** intellect, intellect, cognition, knowledge, understanding, perception, will, consciousness, memory, thinking, speech and mental processes, energy activity, life experience, talent, value, spirituality.

**Intellekt** (lotincha: *intellects* - bilish, tushunish, idrok qilish) - insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq.

Tafakkur tarixida intellekt to'g'risidagi fikr-mulohazalar turlicha bo'lgan. O'rta asrlarda intellekt irodaga bo'ysunadimi yoki iroda intellektgami degan masala bo'yicha qizg'in munozaralar avjiga chiqqan. O'sha davrlarda intellekt bilishning eng yuksak – ilohiy usuli sifatida inson tafakkuriga qarshi qo'yilgan. Birinchi nuqtai nazar tarafdorlari Duns Skot va Uilyam Okkam bo'lsa, ikkinchi

qarash tarafdorlaridan biri Foma Akvinskiy edi. Hozirgi zamon falsafasida intellekt ham, iroda ham mavjud holatga asoslangan holda namoyon bo‘ladi yoki intellekt ma’naviyatga taalluqli bo‘lgani uchun ruhiy holat mahsuli sifatida irodadan ustun turadi, degan tasavvurlar mavjud. Intellektual resurs insonlarda bilim, hayotiy tajriba va idrok hamda zehn asosida avvalo o‘z aqliy omilkorlik salohiyatini, turmush tarzini turli yo‘nalish va shakllarda yanada boyitish, uning yangi qirralarini ochish, mukammallashtirish imkoniyatidir. Inson bosh miyasi qobig‘ida o‘n to‘rt milliarddan oshiq neyronlar mavjud. Ularning vazifasi inson faoliyatini har tomonlama, to‘la boshqarishdan iborat.

Psixologiyada aql-zakovat, ya’ni intellekt muommosi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ist’edod, qadriyat, ma’naviyat hamda aql zakovat etnopsixologik nuqtai-nazaridan millat ko‘zgusi hisoblanadi. Aql zakovat insoniyat yashab turgan jamiyatning ruhiy-manaviy omilidir. Binobarin, aqliy imkoniyat mazmuni va mohiyati bevosita mujassamlashgan bo‘ladi. Jamiyat takomillashuvining bosh omili bu - barkamol avlod, keng ko‘lamli, teran fikrlovchi, bilimdon shaxslarning shakillanishidir.

Shu sabab hozirgi kunda Respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirda yoshlar uchun har tomonlama takomillashuvini, shu jumladan intellektual rivojlanishni taminlash uchun yetarli sharoitlar yaratilgan. Barcha ta’lim muassasalari maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar, o‘rta mahsus kasb hunar ta’limi oliy dargohlar kompyutorlar bilan taminlangan. Barcha ta’lim muassasalari o‘qitishning eng yangi texnik jihozlari bilan taminlangan. Yosh avlodning intellektual jihatdan rivojlanishi uchun yetarlicha sharoitlar yaratildi. Faqatgina yoshlar bunday imkoniyatlardan foydalana olishlari kerak.

Jamiyat taraqqiyoti teran fikrlovchi, aqlli shaxslar rivojiga bog‘liq bo‘lmoqda, bunda jamiyat inson intellekti rivojini ta’minlasa, inson ana shunday jamiyat rivojlantirgan intellekti bilan jamiyatni taraqqiy ettiradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, intellekt rivojining psixologik jihatlari mavjud. Bunday psixologik jihatlarga inson ongining rivoji, intellektning paydo bo‘lishi hissiy intellekt masalalari, jins va intellekt, intellekt yetishmovchiligi, intellektning tuzilishi masalalari, intellekt tarixi kabilar kiradi.

Jamiyat davlat taraqqiyotiga inson aql zakovati bilan erishiladi. Insonning aqliy taraqqiyotini tadqiq qilish bugungi kundagi fan oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmasdan, balki bu muommo qadimdan mutafakkir olimlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Hatto mazkur muommo antik dunyoda yashab ijod etgan faylasuf olimlar diqqatini o‘ziga jalb etgan. Ular dunyoni bilishning asosi aql ekanligini ta’kidlaganlar. Haqiqatdan ham intellekt insonning har tamonlama rivojlanishini, obro‘ qozonish, e’tiborga ega bo‘lish, hayotda o‘z o‘rnini topishga ham ko‘mak beradi.

O‘quvchilar aqliy kamolotini o‘rganish ayni kunning dolzarb muommolaridandir. Aqliy kamolotning rivoji ko‘p jihatdan o‘quv faoliyati bilan bog‘liq masaladir. Atrofni bilish va anglashni, fikr yuritish va mustaqil mushohada yurita olish, sezgirlik va zehn, qobiliyat va iqtidor aql bilan bog‘liq. Inson aqlining o‘sishi jamiyat taraqqiyoti bilan ham bog‘ldiqdir. Jamiyat taraqqiy etgani sayin

inson ongi ham taraqqiy etadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga nazar tashlasak, bu yoʻnalishdagi muommoni oʻrganish juda qadimdan boshlanganligini koʻramiz. Chunonchi, A.Bine, T.Simon, L.Termin, E.Torndayk, Spirmen, F.Frimen, Tyorstoun, J.Gil'ford, T.Ribo, J.Piaje, Mak Ferson, K.Taylor kabi chet el hamda rus psixologlari oʻz ishlarida intellekt muommosini yoritib oʻtishga harakat qilganlar.

Shu kabi tadqiqotlar natijasida intellekt rivojlanishining psixologik jihatlarini oʻrganishga qaratilgan koʻplab psixodiagnostik vositalar ishlab chiqilgan. Bular jumlasiga Bine – Simon, G.Ayzek, Djeis Kettel, Termin, D, Veksler, P.Torreks, A.Anastazi kabilar tamonidan ishlab chiqilgan testlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bulardan hozirgi kunda ham amaliyotda keng qoʻllanilmoqda.

Intellekt rivojlanishining psixologik jihatlarini oʻrganish borasida Respublikamiz olimlari tomonidan ham bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, M.T.Davletshin, E.G.Gʻoziyev, Sh.Usmonova, V.M.Karimova, M.M.Mamatov, B.R.Qodirov kabi olimlarimiz tomonidan intellektning rivojlanish muommosi oʻrganilgan va oʻrganilmoqda. Bunday tadqiqotlar Respublikamizda yetishib kelayotgan yosh avlodning intellektual taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Shular asosida hozirgi kunda intellekt rivojlanishini oʻrganishga oid koʻplab tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga qaramay intellekt rivojlanishining psixologik jihatlarini muommo boʻlib qolmoqda.

«Oqil odamga butun dunyo ochiq. Zero yaxshi qalb uchun butun dunyo vatandir»<sup>1</sup>. Kant bu fikrni rivojlantiradi: u yaxshi maqsadlarga intilishni emas, balki asosiy axloqiy qonunni amalga oshirishni eng katta yutuq deb hisoblaydi. Maqsad muammosi mavjud narsalar sohasida emas, balki boʻlishi kerak boʻlgan narsalar sohasida yechiladi. Shu munosabat bilan koʻp sonli aksiologik (qadriyatlar bilan bogʻliq) muammolar yuzaga keladi.

Kant aql darajalari tushunchasini muomalaga kiritdi: nazariy aql narsalar dunyosi haqida mushohada yuritadi; faqat amaliy aql obʻyektlarni kuzatish chegaralaridan oʻtadi va shuning uchun ham u nazariy aqldan ustun turadi. Amaliy aql xohish-iroda sifatida, amaliyot esa – axloqiy-odilona faoliyat sifatida amal qiladi. Kant amaliyotni maqsad, erkinlik, xohish-iroda, axloq kategoriyalari orqali tavsiflaydi.

Al-Forobiy fikricha “Inson shaxsini shakllantiradigan, uni boshqa maxluqotlardan ajratib turadigan va unda insoniy xislatlarni rivojlantiradigan narsa uning faol aqlidir. Bu kuch avval-boshda faqat qobiliyatdir bu quvvat, oʻylash, mulohaza yuritishga qobil, ammo hayotga tadbiiq etish, yaʼni joriy qilishga qobil emas”<sup>2</sup>. Aqlni hayotga tadbiiq etish uchun, unga tashqi kuch taʼsir etishi kerak, bu esa faol aqlidir. Faol aql - mustaqil quvvat boʻlib, oʻz mohiyati, birinchi va ikkinchi va boshqa sabablar mohiyati haqida fikrlay oladi. Aynan shu faol aql odam

<sup>1</sup> Демокрит \\\ Всемирная энциклопедия. –М.: Современный литерат., 2001. –С.105.

<sup>2</sup> Ал-Форобий. Фозил шаҳар аҳолиси. -Т.: Шарк, 1999.- Б. 69

imkoniyatlarining tashqi voqyealarga ta'sir etishi va uni rivojlantirishga turtki beradi.

Forobiy ta'biri bilan "moddiy aqldan amaliy aqlning yuqoriroq pillapoyasiga ko'tariladi va uning faol aqlga munosabati quyosh bilan ko'zni solishtirgandek bo'ladi"<sup>3</sup>. Agar quyosh bo'lmasa, inson narsalarni ko'ra olmaydi. Faol aql quyoshi inson ruhi da paydo bo'lganidan keyin, aqliy quvvat faol aqlga qaraydi. Inson tabiat gultoji, ya'ni aqlli mavjudod.

Yusuf Xos Xojib fikricha inson dunyoda abadiy emas, bu dunyoga kelgan har qanday odam vaqti yetgach ketadi. Inson umrining qimmatini necha yil yashagani bilan emas, qanday ezgu ishlarni amalga oshirganligi, hayotda qoldirgan izi bilan belgilanadi. U kishi olamdan o'tgandan so'ng, bu dunyoda undan ikki xil, biri yomon, ikkinchisi yaxshi degan nom qoladi. Inson iloji boricha o'zidan yaxshi nom qoldirishi, yaxshi olqish olishi lozim deb ta'kidlagan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akimova M. Intellektual testlar. Toshkent. 1990.
2. Ал-Фаробий Фозил шахар аҳолиси.-Т.: Шарқ, 1999 –Б.73.  
Bogoyavlenskaya D. Intellektualnaya aktivnost kak problema tvorchestva. Rastov. 1993.
3. G'oziyev E.F. O'quvchilarni umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. Toshkent - O'qituvchi. 1993.
4. Malikaxon Kaхramonovna, Q. (2022). TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDA MULOQOTNING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific Impulse, 1(3), 665–669. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1105>
5. Qodirova Malika, & Imomqulova Fotima. (2022). CAUSES OF DISPUTES BETWEEN PARENTS IN FAMILY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 675–678. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/HAB4U>
6. Кодирова Малика Кахрамоновна РОЛЬ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ ПОЗНАНИЯ У ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ // Евразийский Союз Ученых. 2020. №10-1 (79). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-poznavatelnyh-protsessov-v-formirovanii-i-razviti-poznaniya-u-detey-6-7-let> (дата обращения: 30.04.2023).
7. Shakarboyeva, S. (2022). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(2).
8. Shakarboyeva, S. (2021). БЎЛҒУСИ ПЕДАГОГЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1).

<sup>3</sup> Ал-Фаробий Фозил шахар аҳолиси.-Т.: Шарқ, 1999 –Б.73.

9. Шакарбоева, Ш. А. (2021). САМОРАЗВИТИЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ПРЕДМЕТ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ. In *Стратегия научно-технологического развития-2021* (pp. 39-40).

10. Шакарбоева, Ш. А. ПЕДАГОГИКА & ПСИХОЛОГИЯ. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. *ПЕДАГОГИКА*, (1), 61-64.

11. O'risheva, P. (2024). O'SMIR XULQ-ATVORIDAGI SALBIY O'ZGARISHLAR. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 161-167. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9559>

12. И.А.Хасанова. (2022). КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ТАФАККУР ЖАРАЁНЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРИНИНГ ЎРНИ. *EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(12), 186–190. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7339056>

13. Xasanova, I. A (2022). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHINING OLDINI OLIHDA RUHIY TARBIYA USULLARIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7452>

14. Xasanova, I. (2024). IRODA VA UNING TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 168-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9560>

15. Xasanova, I. (2024). IRODA VA UNING TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 168-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9560>

16. Xasanova, I. (2024). O'QUVCHILAR TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDA TA'LIMNING O'RNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 174-180. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9561>

17. Shakarboyeva, & O'ktamova, O. (2024). TARBIYASI OG'IR O'SMIRLARNI IJTIMOIYLASHTIRISHDA OILA, MAHALLA, TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIKLAGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 139-147. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9555>

18. Shakarboyeva, & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 148-154. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9556>

19. O'risheva, P. (2024). O'SMIR XULQ-ATVORIDAGI SALBIY O'ZGARISHLAR. *Журнал Педагогики и психологии в современном*

- образовании, 4(1), 161-167. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9559>
- 20.Shakarboyeva, & Жасурова, Н. (2024). ЎСМИРЛАРДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8831>
- 21.Shakarboyeva. (2024). O‘SMIRLIK DAVRIDAGI SUITSIDNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8726>
- 22.Shakarboyeva, & Худойкулова, Г. (2024). БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ЧЕТ ТИЛИ ЎЗЛАШТИРИШ ВА ЎРГАТИШНИНГ ЁШГА ОИД ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8832>
- 33.O‘risheva, P., & Jiyanberdiyev, M. (2023). PSIXOLOGIYA FANLARINI OQITISH JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AXAMIYATI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 3(1).
- 34.O‘risheva, P. (2023). SHAXS TOLERANTLIK XUSUSIYATININI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (I).
- 35.O‘risheva, P. (2022). THE DEVELOPMENT PROCESS OF A CHILD'S SELF-CONCEPTION AND MOTIVATION AREA. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 2(6).
- 36.Ўришева, П. (2022). РОЛЬ МУЛЬТМИДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(12), 559-562.
- 37.QIZI, O. R. P. G. A. (2022). ILK O‘SPIRIN YOSHIDA PSIXOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(1), 32-36.
- 38.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSH OILALARNING IJTIMOY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 4(1), 85-90. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9547>
- 39.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MUAMMOLARI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 4(1), 119-125. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9552>
- 40.Iroda, X. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF LEADERSHIP. *World Bulletin of Management and Law*, 21, 16-18.